

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI

IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI



IMOM BUXORIY SABOQLARI



2/2024

MUNDARIJA (2024/2)

Шовосил ЗИЁДОВ, Мавлуда КАРИМОВА. Марказий Осиёда илк тошбосма китобларнинг нашр бўлиш тарихидан (XIX аср охири – XX аср бошлари).....3

ВАТАНИМИЗ ТАРИХИ

Отабек МУҲАММАДИЕВ. Сўғдлик муҳаддислар тарихи.....6

Акбар АСРОРОВ. XIX аср бошлари Самарқанд мумтоз адабиёти вакили – Қози Асрорхон Муфтақир адабий мероси.....11

Маҳмуд НАСРУЛЛАЕВ. Ўзбекистон ҳудудларида давлатчиликнинг шаклланиш жараёни бўйича мулоҳазалар.....13

Latofat XOLNAZAROVA. Buxoro hukumatida nashr ishlarining yoʻlga qoʻyilishi.....16

Шерзод РАВШАНОВ. Россия империясининг Туркистондаги диний сиёсати (Сирдарё вилояти шаҳарлари мисолида).....17

Гулмира ОЧИЛОВА. Самарқанд матбуотида жаҳидларнинг ислом дини ва урф-одатлар ўртасидаги тафовут масаласидаги қарашлари.....19

Олимжон ИРИСКУЛОВ. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанд “Эски шаҳар”и ҳудуди ва ижтимоий ҳаёти тарихидан.....20

Шавкат БОБОЖОНОВ. Ўзбеклар маросимий маданиятида Дарвешона.....23

Ubaydulla QUVVATALIYEV. Buxoroda qiymatli asarlar.....26

Toxir MAXMUDOV. Taʼlim tizimining ikkinchi Renessans taraqqiyotidagi oʻrni.....28

Шерали АЛЛАБЕРГАНОВ. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Хоразм вилоятида саноат корхоналари фаолияти.....31

Serobjon XAMRAQULOV. Qoʻqon shahrida milliy davriy matbuotning shakllanishi va rivojlanishi.....33

Санжарбек ДЖУМАНОВ. Ўзбекистонда тиббиёт фанининг ривожланиши тарихи (1991-2000 йй).....35

Зиёдилла ЗИНАТУЛЛАЕВ. Сомонийлар давлати бошқарув тизими.....37

Jonibek JUMAYEV. Oʻzbekistonda diniy bagʻrikenglik boʻyicha amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari (2016-2023 yy).....42

Sunatillo ABDIVOHIDOV. Jadidlar taʼlimotida mavjud muammolarni yoritishda milliy matbuotning oʻrni.....44

Икромжон АЗИЗОВ. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Бухоро амирлигида анъанавий хунармандчилик.....46

Norpulat AXMEDJONOV. Madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning ahamiyati.....50

Azamat BERDIYEV. Nurota togʻ tizmasining shimoliy yon bagʻri tojik aholisining dafn va xotira marosimlari.....52

Rustambek NARZIYEV. “Nurli maskan” – zaif koʻruvchi bolalar maktab internati tarixiga doir.....54

Zafar SHAMSIDDINOV. XIII–XIV asrlarda Movarounnahrda arxitektura inshootlari.....55

Behruz BOBOJONOV. Qadimiy va navqiron Kesh – Shahrisabzning savdo-iqtisodiy bozorlari topografik munosabatlarining xronologik tahlili.....58

Amirbek TAGʻBAYEV. B.X.Karmisheva tadqiqotlarida Oʻzbekiston aholisi dehqonchiligi masalasi.....60

АЖДОДЛАР ИЛМИЙ МЕРОСИ

Islom HAMDAMOV. Mirzo Ulugʻbekning “Toʻrt ulus tarixi” asari tarixiy-falsafiy meros sifatida.....63

Бурхон АХМЕДОВ. Абу Бакр Жассос илмий меросининг ҳанафий мазҳаби ривожига тутган ўрни.....64

Oʻtkir MATTIYEV. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Kaspiyorti viloyatidagi Afgʻon muhojirlari tarixi.....67

Абдувоси ШОНАЗАРОВ. “Сахиҳул Бухорий” ровийси Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Маъкил Насафий ҳаёти ва илмий фаолияти.....69

Баҳодир МУСАМЕТОВ. Сомонийлар даврида Мовароуннаҳр ва Хуросонда диний вазият.....71

Xolmurod RAXIMOV. Sahl ibn Abdulloh Tuʼstariy – buyuk mutasavvif olim.....75

Толибжон НИЗОМОВ. Буюк факих, беназир олим ва машхур муфассир.....78

Хулкар УСМАНОВА. Масъуд Самарқандий қаламига мансуб “Салоти Масъудий” асарининг таркибий таҳлили.....79

Мардон ХАСАНОВ. Хоразмнинг илк ровийлари.....82

أحمد سعد إبراهيم عبد الرحمن عثمان (الدمهوري). كتاب التوحيد للماتريدي هل يمكن الاعتماد على نسخة خطية واحدة؟ 84.....

НОДИР МАНБАЛАР

- Дониёр МУРАТОВ.** Абдуллоҳ Субазмунӣ “Муснад”ининг илмий тадқиқи масаласи.....88
- Равшан ЭЛИМУРДОВ.** Абул Баракот Насафийнинг “Ал-Эътимод фил эътикод” асари тавсифи.....90
- Sunnatulla ABDULLAYEV.** “Sahihul Buxoriy” asarining islomshunoslikda oʻrganilishi.....92
- Абдурашул АБДУЛЛАЕВ.** Фахриддин Розий қаламига мансуб “Мафотиҳул ғайб” асарининг бугунги кундаги аҳамияти.....94
- Руфат АХМЕДОВ.** Абу Бакр Муҳаммад Закариё Розий таълимотида нафс ва уни тарбиялаш йўллари.....96
- Maxzuna SOBIROVA.** Abdurahmon ibn Xaldunning “Tarixi Ibn Xaldun” asari tadqiqotchilar nighida.....99

ИСЛОМ ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН

- Farhod KARIMOV, Behzod SOIPOV.** Saudiya Arabistonining diniy va mafkuraviy siyosati, hozirgi tendensiya va istiqbollar.....101
- Shaxnoza KIMSANBAYEVA.** Jamiyatning maʼnaviy yangilanishida anʼanaviylik va zamonaviylik uygʻunligi....106
- Обид ХУРСАНДОВ.** Аллоҳ таолонинг таквин сифати ҳодисми?.....108
- Habibullo SADIBAQOSEV.** AQSH tashqi siyosatida musulmon mamlakatlar bilan xavfsizlik sohasidagi hamkorlik masalalari.....110
- Umid RAHMATULLAYEV.** Islomda xalqaro aloqalar, elchilik munosabatlari asoslari.....112
- Fotima NAZAROVA.** Erondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda kurdarning oʻrni.....114
- Дилноза ТОҒАЕВА.** Маданиятлар тўқнашуви геосиёсий ихтилофларнинг марказидир.....117

ИЖТИМОИЙ ИНСТИТУТ

- Махмудали ДЕҲҚОНОВ.** Оилавий муносабатлар маданиятининг ривожланиш тарихи.....120
- Sanjar HAMROYEV.** Davlat suverenitetini mustahkamlashning ijtimoiy-siyosiy omillari.....121

- Рустам МАМАТҚУЛОВ.** Миллий ўзликни англашнинг миллий манфаатларни таъминлашдаги вазифалари.....123
- Dilafroʻz AXMEDOVA.** Anʼanaviy jamiyatda bilimning tizimni shakllantiruvchi roli.....125
- Oysulton DOVRANOVA.** Oilaning ijtimoiy funksiyasi inqirozi natijasida avlodlararo munosabatlarning buzilishi.....127

ФАЛСАФИЙ МУШОҲАДАЛАР

- Соҳибназар КАРИМОВ.** Тасаввуф таълимотида тил ва дил бирлиги зикр воситаси сифатида.....130
- Аслиддин ҲАЙДАРОВ.** Истеъмолчилик хатти-ҳаракатларининг тарихий, замонавий ва фалсафий жиҳатлари.....132
- Abbos DOʻLANOV.** Mustaqil fikrlash va yangicha ruhiyat dialektikasi.....134
- Бахтиёр ТУРСУНОВ.** Тавба турмуш тарзи ва ахлоқни тартибга солиш омили сифатида.....136
- Каромиддин ЖАМАҲМАТОВ.** Саййид Абдуллоҳ Мушқин Қалам Васфий Термизий ҳаёти ва адабий меросининг герменевтик тадқиқи.....138
- Pulotjon QAXOROV.** Islomda erkak va ayol tengligi gʻoyasining gnoseologik talqini.....141

ЁШЛАР – КЕЛАЖАГИМИЗ

- Гулшада ЎРАЗАЛИЕВА.** Этноанъаналар ва этнокадриятлар – оилавий тарбиянинг муҳим омили.....144
- Шалола МУҲИДДИНОВА.** Ўзбекларда бола туғилишида чилла даври билан боғлиқ урф-одатлар.....146

МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ

- Хусниддин АХМЕДОВ.** Маънавий ҳаёт ва сиёсий фаолият.....148

БИР ҲАДИС ШАРҲИ

- Muhim bir qoida.....150



SAUDIYA ARABISTONINING DINIY VA MAFKURAVIY SIYOSATI, HOZIRGI TENDENSIYA VA ISTIQBOLLAR

FARXOD KARIMOV

*O'zbekiston xalqaro islom
akademiyasi dotsenti,
siyosiy fanlar doktori*

BEHZOD SOIPOV

*Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Saudiya Arabistoni Podshohligining diniy siyosati tarixi, asoslari va strategiyasi, bu boradagi asosiy g'oyalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari ochib berilgan. **Tayanch so'zlar:** Saudiya Arabistoni diniy siyosati, siyosiy institutlar va aql markazlari, Muhammad bin Salmon islohotlari.

Annotation: This article reveals the history, foundations and strategy of the religious policy of the Kingdom of Saudi Arabia, the main ideas in this regard and the mechanisms of their implementation. **Keywords:** Saudi Arabian religious politics, political institutions and think tanks, Mohammed bin Salman reforms.

Аннотация: В данной статье раскрываются история, основы и стратегия религиозной политики Королевства Саудовская Аравия, основные идеи в этом отношении и механизмы их реализации. **Ключевые слова:** религиозная политика Саудовской Аравии, политические институты и аналитические центры, реформы Мухаммеда бен Салмана.

Saudiya Arabistonining diniy siyosati tarixi

XVIII – XIX asrlarda din davlatdan ajratilmagan edi. Shuning uchun davlat zakot yig'ib, uni ijtimoiy da'sturlarga sarflagan. 1843-yildan Saudiya birlashishni boshlagan. Abdulaziz ibn Saud davlatni boshqarsa ham imom lavozimida edi. 1921-yildagina sulton, Hijozni zabt etgandan keyin esa Qirol titulin oladi. Odamlar xalifalik sulolaviy qirolikka aylandi deb o'ylaganda, Abdulaziz yonida islom ulamolari borligini va bunday emasligini aytadi. Qirol ixvonlarni tashkil qiladi (vahhobiylikka ergashgan beduinlar). 1912-yilga kelib, 200 ta ixvan qishloqlari paydo bo'ladi. Abdulaziz ixvanlar orqali hokimiyatni egalladi. Vahhobiylikka qiroлга hatto u tahqirolovchi (tiran) bo'lsa ham bo'ysunish buyurilgan. Lekin ixvanlarning bir qismi televizor va radio kabi yangiliklarni kiritib, qiroлга qarshi chiqqan edi. Qirol islom ulamolaridan o'ziga qarshi chiqqanlar xavoriy ekani to'g'risida fatvo chiqarishini so'raydi va bu hujjat chiqqandan keyin ularning qo'zg'olonini bostiradi. Ularning xavoriy ekani to'g'risida fatvo chiqqani uchun qirol legitimligi saqlab qolinadi.

Abdulaziz "Majlisul shuaro" va "Majlisul xos" kabi diniy-siyosiy institutlarni tashkil qilish orqali ulamolar faoliyatini nazoratga oldi. Abdulaziz o'g'illarini G'arbga jo'natayotgani va davlat g'ayridinlar texnologiyalaridan foydalanayotgani aholining bir qismini tashvishga soladi.

Konservativ ulamolar ujtihad eshiklari yopilganini da'vo qilib, yangi masalalarga izoh berishdan cheklanadi. Saudlar esa modernist ulamolarni qo'llaydi, chunki ularning faoliyati Saudiyada neft topilgandan keyingi olib borilgan zamonaviy islohotlarga mos keladi. Televizor va telefonga ruxsat beruvchi fatvo ham aynan modernist ulamolardan chiqqan edi.

1965-yilgi islom sammiti va 1972-yildagi musulmon davlatlari tashkiloti Faysal tomonidan panislozmizmni yoyuvchi sovetlarga qarshi tuzilgan xalqaro tuzilma bo'ldi. Faysal Arabistoni xalqaro munosabatlarda din himoyachisiga aylantirdi. Lekin davlat ichida ulamolarni siyosiy institutlarga jalb qildi. Davlatni rivojlantirish va islom dinining siyosatga aralashuvini cheklash uchun sekulyar ta'limni joriy qilib, g'arbni qo'llab-quvvatlagan odamlarga vazir lavozimini berdi. Diniy konferensiyalarda siyosiy mavzular senzura uchrad.

Oppozitsiya faoliyati cheklandi. 1953-yili Dammam qo'zg'olonini bostirildi va ishtirokchilar Arabistondan deportatsiya qilindi. 1962-yili Yamandagi nosiriylarga o'tmoqchi bo'lgan 9 ta uchuvchi samolyot to'xtatildi va bu ishga aloqasi bor ko'plab shaxslar qamaldi.

Muhammad Utaibi va Abdulloh al-Qahtani 1979-yili Makka shahrini qo'lga oldi. Al-Qahtani o'zini Imom Mahdi deb e'lon qilganida ulamolar unga qarshi fatvo berdi. Abdulaziz bin Baz

ham ularga qarshi "Haramda urishish mumkin, chunki urushni ular birinchi boshladi" degan mazmunda fatvo chiqaradi. Askarlar u yerga kirganda barcha jihozlarni simpatiya tufayli mahdichilarga tashlab ketdi. Shuning uchun keyingi safar Fransiya qo'shinlari Makkaga kirib, tozalab berdi. Davlat ham ulamolardan foydalangan holda aholi orasida obro'sini tikladi. Bu ishlar qirol Xolid obro'sini tushirib yuborishi kerak edi, lekin Utaibining davlatga qo'ygan talablari faqat siyosiy bo'lgani tufayli, ulamolar unga osongina raddiya berdi va aholi tinchlandi. Lekin bu holat xalq orasida "Juhayman o'ldi, lekin g'oyalari tirik", degan gapning tarqalishiga sabab bo'ldi. Haramning 1979-yildagi egallanishi g'arblashtirishga qarshi harakat sifatida baholandi. Shundan keyin g'arblashtirish anchagina sekinlashadi. Bin Salmon 2017-yilda "Biz 1979-yilga qadar zamonaviy bo'lganmiz, islom mo'tadil din, biz asl islomga, ya'ni 1979-yildan oldingi islomga qaytishimiz kerak", degan gaplar bilan o'zining "Vision-2030" loyihasini e'lon qildi.

Eron-Iroq urushida ham AQSHning Saudiyaga joylashishi uchun Bin Baz "Yovga qarshi dinni va yerni himoya qilish uchun hatto musulmon bo'lmaganlardan ham yordam so'rash mumkin", degan fatvo chiqaradi. Boshqa ulamo esa fatvoni tasdiqlab, Saddam Husaynni "Iroqdagi musulmonlar qonini to'kayotgan kofir", deb ataydi. Shunday qilib, AQSHning Saudiyani himoya qilishi uchun sharoit yaratiladi.

Bin Baz qirol Fahd davrida Iroqqa qarshi jehod e'lon qiladi va hatto AQSH bilan birlashgan holda urushga kirish uchun fatvo beradi. 1991-1992-yillarda ikkita petitsiya aholi tomonidan imzolandi. Imzolaganlar liberal oppozitsiya va professor-qituvchilar edi. Petitsiya unchalik keskin bo'lmagan Shuaro majlisini tuzish va korrupsiyani tugatishni talab qilgan "Bitta odam fatvo bera olmaydi" degan diniy ko'rinishdagi g'oya edi. Shunday bo'lsa-da, bu asosan siyosiy vaziyatni isloh qilishga qaratilgan. Ba'zi kishilar AQSHning Saudiyadagi mavjudligini ham tanqid qilayotgan edi. Qirol bu holatni o'z foydasiga hal qilishga harakat qildi. Majlis tuzildi va oppozitsiyadan biron kishi majlis vakili bo'la olmadi. Faqatgina bir nafar shia vakili a'zo bo'lib, qolganlari qirolikka yaqin vakillar edi. Inson huquqlari bo'yicha ham o'zgarish bo'ldi. Ta'qib va senzura tufayli qamash noqonuniy, deb hisoblandi. Bu holat islom politisasi (mutava) faoliyatini keskin chekladi va ularning obro'sini tushirib yubordi. Ziyorat turizmi va islomiy fond vazirliklarini tashkil qilish orqali esa diniy vaziyatni nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Lekin Fahdning qattiq kuch siyosati ham yo'qolmadi. Oppozitsiyaning majlislarda xutba o'qishi cheklandi, universitetlardan ham haydaldi. Diniy yig'inlarni Ichki ishlar vazirligining ruxsatisiz tashkil etish taqiqlandi. Shunday qilib,

oppozitsiyaning imkoniyati cheklandi. Hukumat tarafidagi ulamolarga yer olishi uchun mablag' va soliqlardan katta subsidiyalar ajratildi.

1993-yili Bin Baz Isroil bilan tinchlik shartnomasini tuzish bo'yicha fatvo chiqaradi. Ayollar avtomobil haydashi uchun ham uzoq vaqt fatvo chiqmagan edi, lekin bu ham amalga oshdi.

"Arab bahori" paytida qiroлга qarshi qo'zg'olon qilish haromligi va bu fitnaga olib kelishi haqida fatvo chiqarildi. Lekin Suriyada zolim podshohga qarshi kurashish kerakligi haqidagi fatvoni ham Arab ulamolar kengashi chiqargan edi.

Hozirgi davrda odamlarning zamonaviylashishi, ijtimoiy tarmoqlar mavjudligi, obyektiv tahlil va haqiqiy holatni kuzatish imkoniyati kengaygani vahhobiy ulamolar obro'sini ancha tushirib yubordi. Ularning fatvolariga qarshi raddiya va ilmiy asoslangan diniy tahlillar ko'paydi.

Saudiya Arabistoni diniy siyosatining asoslari va strategiyasi

Saudiya Arabistonining diniy siyosati vahhobiylik bilan chambarchas bog'liqdir. Islomning konservativ talqini mamlakat boshqaruvi, ijtimoiy me'yorlari va o'ziga xosligini shakllantirgan. Saudiya Arabistoni diniy siyosatining asosiy mafkurasi bo'lib xizmat qiladigan vahhobiylik islom tamoyillariga qat'iy amal qilish, diniy yangiliklarni rad etish va islomni puritancha talqin qilishga urg'u beradi. Saudiya Arabistoni Makka va Madinadagi ikki muqaddas masjidga vasiylik qiladi. Bu muqaddas qadamjolarni nazorat qilishda vakolat va mas'uliyatni ta'minlaydi hamda diniy siyosatining asosiy ustuni bo'lib xizmat qiladi. Shariat qonunlarining tatbiq etilishi Saudiya Arabistonida diniy ulamolar rahbarligida ijtimoiy xulq-atvor, oilaviy qonun, jinoyatga qarshi adolatni ta'minlash va jamoat axloqiga ta'sir ko'rsatadigan huquqiy asosni tashkil qiladi. Saudiya Arabistoni turli diniy tashabbuslar orqali musulmon davlatlari o'rtasida birdamlikni kuchaytirishga, hamkorlik, muloqot va islomiy sabablarni global miqyosda qo'llab-quvvatlashga intiladi.

Saudiya Arabistoni vahhobiy ta'limotlarini targ'ib qilish, islom institutlarini qo'llab-quvvatlash va umumiy diniy manfaatlarini ilgari surish uchun musulmon davlatlari bilan hamkorlik o'rnatgan. Bunday aloqalar orqali mamlakat diniy diplomatiya bilan shug'ullanadi. Davlat vahhobiylik tamoyillarini targ'ib qilish, diniy ta'limotni kelajak avlodlarga yetkazishni ta'minlash maqsadida masjid, madrasa va o'qitish dasturlari orqali diniy ta'limga sarmoya kiritadi. Saudiya Arabistoni o'zining diniy siyosatidan jamiyat normalari va xatti-harakatlarini shakllantirish, islomiy qadriyatlarga muvofiqlikni ta'minlash, jamoat va shaxsiy hayotda diniy amaliyotlarga rioya qilishni rag'batlantirish uchun foydalanadi. Mamlakat islomni mo'tadil talqin qilishni targ'ib qilish, asosiy islom ta'limotidan chetga chiqqan ekstremistik mafkuralarga qarshi turish orqali radikallashtirish va ekstremizmga qarshi kurashadi. Buning uchun diniy strategiyalardan foydalanadi. Diniy siyosat bunday tamoyillarni jamiyat hayotiga tatbiq etishga, huquqni muhofaza qilish va davlat boshqaruviga integratsiyalashgan holda jamiyatda birdamlik, barqarorlik va hukmron monarxiyaga sodiqlikni saqlashga qaratilgan. Saudiya Arabistoni o'zining diniy siyosatini global ta'sir va yumshoq kuch vositasi sifatida ishlatadi. O'zini musulmon dunyosida yetakchi sifatida ko'rsatadi va xalqaro miqyosdagi diniy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi.

Saudiya Arabistoni diniy siyosatidagi asosiy g'oyalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari

Saudiya Arabistonining diniy siyosati vahhobiylik tamoyillarini targ'ib qilish va saqlash, mamlakatning islomiy o'ziga xosligini saqlab qolish, jamiyatda konservativ diniy qadriyatlarining hukmronligini ta'minlashga qaratilgan. Saudiya Arabistoni diniy siyosatining tamal toshi bo'lib xizmat qiladigan vahhobiylik Muhammad ibn Abdul-Vahhob ta'limotiga asoslangandir. Unda islomni qat'iy talqin qilish ta'kidlanadi, diniy poklik va an'anaviy urf-odatlariga amal qilish targ'ib qilinadi. Saudiya Arabistoni o'zini Makka va Madinadagi ikki muqaddas masjid qo'riqchisi sifatida ko'rsatib, uning diniy ahamiyatini targ'ib qiladi.

Diniy siyosat konservativ ijtimoiy me'yorlarni, jumladan,

gender ajratish, kamtarona kiyinish qoidalari va islom ta'limotiga zid deb hisoblangan xatti-harakatlarga cheklovni qo'llaydi. Shariat qonunlarining amalga oshirilishi Saudiya Arabistoni hayotining turli jabhalarini, jumladan, oilaviy masalalar, jinoiy sudlov, boshqaruv va jamoat xatti-harakatlarini tartibga soladi. Diniy siyosat vahhobiylik ta'limotini targ'ib qilish va aholiga islomiy qadriyatlarni singdirish uchun masjid, maktab va ta'lim muassasalarida diniy ta'limni targ'ib qiladi va kengaytiradi.

Katta ulamolar qo'mitasi diniy matnlarni sharhlash, fatvo berish, boshqaruv va jamiyatda islom tamoyillarini qo'llashda rahbarlik qilishda muhim rol o'ynaydi.

Ezgulikni targ'ib qilish va yomonlikning oldini olish qo'mitasi jamoat joylarida axloqiy xulq-atvor, diniy qoida va islomiy urf-odatlariga rioya qilishni ta'minlaydi va islomga zid deb topilgan xatti-harakatlardan saqlaydi.

Islom ishlari vazirligi kabi muassasalar vahhobiylik ta'limotini targ'ib qilishni qo'llab-quvvatlaydi, diniy faoliyatni nazorat qiladi va Haj operatsiyalarini muvofiqlashtiradi, diniy siyosatni mustahkamlaydi hamda bunday urf-odatlarini nazorat qiladi.

Diniy siyosat sud tizimi ishlashiga ta'sir qiladi. Islom qonunlari huquqiy tartib-qoidalar, sud qarorlari va huquqiy nizolarni shariat tamoyillariga muvofiq hal qilishda asosiy manba hisoblanadi.

Saudiya Arabistoni islomiy qoidalarni qo'llab-quvvatlash, chet elda islom institutlarini qurish va o'zini musulmon dunyosida yetakchi sifatida ko'rsatish orqali global miqyosda ta'sir o'tkazadi. Buning uchun diniy siyosatdan foydalanadi.

Diniy siyosat mexanizmlari.

Ulamolar kengashi – ushbu kengash orqali fatvo chiqariladi. Shuningdek, undan boshqaruv jarayonida hukumat harakatlarini huquqiy asoslash uchun fatvo berishda foydalaniladi.

Saudiya vahhobiylikni tarqatishda tashabbuskor. Dunyo bo'ylab 40 yil ichida 1500 ta masjid qurilishini moliyalashtirgan.

Shar'iy sudlar – hozirda bunday sudlardan foydalanish bir ma'noda cheklanayotgan bo'lsa ham, asosan ular orqali davlat huquqiy tizimi faoliyat yuritadi. Oxirgi paytda yangi chiqayotgan yuridik hujjatlar Qur'on va sunnatga qarshi chiqmasa-da, unga iqtibos bermay qo'ydi. Yangi qurilayotgan NEOM shahrida ham xalqaro qonunlardan foydalanish va hattoki alkohol ichishga ruxsat berilgan.

Yangi avlod hokimiyatga kelgandan so'ng milliy identiklik masalasiga katta e'tibor berila boshlandi.

Jahon Musulmonlar Ligasi Saudiyaning chetdagi diniy siyosatini amalga oshiruvchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Saudiya Din ishlari bo'yicha vazirligining tashqi aloqalar bo'limi Jahon musulmonlar ligasi o'rmini bosmoqda. Bular ikki xil tashkilot bo'lsa ham, boshida din ishlari vazirligi tashqi targ'ibotni moliyalashtirgan.

Saudiya Arabistonida diniy siyosatni ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga ko'maklashuvchi institutlar va aql markazlari

Hozirgi islom ishlari vaziri Abdullatif al-Shayx Saudiya Arabistonining diniy islohotlaridagi asosiy shaxslardan biridir. U buni vahhobiy ta'limoti va "solih o'tmishdoshlar metodologiyasi"ga to'liq mos keladigan yo'l sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, mamlakatdagi diniy metodologiya islomchilar tomonidan o'nlab yillar davomida o'tkazilgan ta'sirni yo'qotish uchun takomillashtirilishi kerak. U rasmiy lavozimga tayinlanishidan avval ham qirolikdagi diniy diskursni belgilab beruvchi shaxsga aylangan edi. Uning Al-Shayx oilasidan ekani ham mavqeyini mustahkamlab turibdi.

Eng muhimi, islom ishlari vazirligi rejimning siyosiy islom va ekstremizmga qarshi kurash ishlari yordam berish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirmoqda:

- masjidlar, va'z va diniy darslarni nazorat qilish;
- xayriya uyushmalarini nazorat qilish;
- Qur'on va diniy qo'llanmalarni chop etish jarayonini nazorat qilish;
- Haj ziyorati uchun qirolning maxsus mehmonlari ro'yxatini shakllantirish;
- xalqaro islom hamkorligiga rahbarlik qilish, mahalliy va xalqaro ommaviy tadbirlarni tashkil etish.

Saudiya Arabistonida so'nggi paytlarda ro'y bergan eng asosiy o'zgarish – bu rasman ezigulikni targ'ib qilish va illatlarning oldini olish qo'mitasi, deb yuritiluvchi diniy politsiyaning jamoat hayotidan deyarli yo'q bo'lib ketishidir. Bu tashkilot shu paytgacha jamiyat hayotida qat'iy diniy qoidalarning bajarilishini nazorat qilgan. Hozirda qo'mita faqatgina qidiruv ishlarini amalga oshiruvchi muassasaga aylangan holda mustaqil qaror qabul qilish huquqidan mahrum bo'lgan.

Saudiya ta'lim vazirligi esa liberal Ahmad al-Issa boshchiligidagi maktab dasturini vahhobiylilik ta'limotidan tozalashga kirishdi. 2018-yil iyul oyida esa islomiy ogohlik fani dasturdan olib tashlandi. Umuman olganda, vazirlik o'quvchilarda tanqidiy fikrlash layoqatini shakllantirish lozimligini aytib, diniy fanlarga ajratilgan soatlarni ikki barobarga qisqartirdi va falsafa fanini ham o'quv dasturiga kiritdi. Bu yo'nalishdagi muvaffaqiyatni IMPACT-se nodavlat tashkilotining Saudiya maktab darsliklarining 2022-2023 o'quv yili nashrini monitoring qilgan holda, o'z hisobotida darsliklarda ekstremistik kontent sezilarli darajada kamayganidan ko'rish mumkin.

Saudiyada davlatning diniy soha moliyasini tartibga solishi qirollikning mamlakat diniy sohasini standartlashtirish siyosatining ajralmas qismidir. Hukumat mazkur mablag'larni iqtisodiyot va qirollikning xalqaro imidjini tubdan o'zgartirishga oid davlat loyihalari bilan bog'laydi. Islomiy yig'implar faqatgina diniy burch emas, balki ular "Vision-2030" loyihasi uchun sarflanishi ko'zda tutilgan mablag'dir. 2016 va 2021-yillardagi Oliy farmonlarga muvofiq diniy yig'im va neftdan bo'lmagan tushumlarni samarali boshqarish alohida nazoratga olingan.

1962-yilda tashkil etilgan Jahon musulmonlari ligasi esa avvalgidek vahhobiylilikni chet elda targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlashdan voz kechib, Yangi Saudiyaning imidji targ'ibotchisiga aylangan. Ushbu faoliyatda 2008-yilda tashkil etilgan G20 dinlararo forumi ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan platformaga aylandi. Yuqoridagi ikki tashkilot Saudiya Arabistonining yangi tolerant jamiyatga aylanayotganini targ'ib qilmoqda.

2011-yilda o'sha paytda Ar-Riyod hokimi bo'lgan Muhammad bin Salmon tomonidan tashkil etilgan MISK fondi (Saudiya yoshlarini ta'lim va tadbirkorlik bo'yicha qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan) davlatning axborot va kommunikatsiya strategiyasi bilan shug'ullanishida katta ro'l o'ynamoqda. U "Yangi Arabiston" qadriyatlarini keng yoymoqda. Ijtimoiy tarmoqlarni monitoring qilish esa Etidal – ekstremistik ideologiyalar bilan kurashish global markazi vazifasiga kiritilgan.

Yuqoridagi davlat va nodavlat tashkilotlaridan tashqari, Oiz al-Qarniy va Muhammad al-Arifiy kabi tizimdan tashqarida, ammo unga xayrixoh ulamolar ko'plovidan ham foydalanilmoqda. Bir necha millionlik auditoriyaga ega mazkur ulamolar jamiyatning dindor qismida islohotlarga xayrixohlik kayfiyatini shakllantirishda katta hissa qo'shmoqda.

Saudiya Arabistoni diniy siyosatining mamlakat tashqi siyosati va taraqqiyotidagi o'rni

Saudiya Arabistoni hozirda amalga oshirayotgan diniy islohotlardan mamlakatning dinlararo bag'rikenglikni qo'llab-quvvatlovchi tolerant jamiyat va ekstremizm bilan ayovsiz kurashuvchi davlat sifatidagi imidjini shakllantirish maqsad qilingan. Shuni ta'kidlash kerakki, bu allaqachon ish bera boshlagan. Jumladan, 2018-yil noyabrda xristian yevangeliya va Amerika yahudiy jamiyati vakillarining Saudiya Arabistonida Muhammad bin Salmon hamda o'sha paytdagi Jahon musulmonlari ligasi bosh kotibi Muhammad Al-Issa tomonidan kutib olinishi misli ko'rilmagan hodisa edi. Yuqoridagi ikki tashkilot vakillari 2019-yilda ham analogik tashrifni amalga oshirdi. 2020-yilda esa Saudiya ulamolari delegatsiyasi Muhammad Al-Issa boshchiligidagi Polshadagi Osvensim konslageriga Amerika yahudiylari jamiyati hamrohligida tashrif buyurdi. 2021-yilda esa Muhammad Al-Issa Vatikanda Papa Fransisk qabulida bo'ldi. Yuqoridagi xatti-harakatlar o'ziga xos "diniy bag'rikenglik yumshoq kuchi"ni shakllantirishga urinishlar sifatida qaralishi mumkin. Bir vaqtning o'zida Saudiya rasmiylari katta ta'sirga ega xalqaro subyektlar bilan ham munosabatlarni shakllantirmoqda.

Ar-Riyodning "mo'tadil islom"dan foydalanishiga ko'p qutbli dunyoning shakllanishida yana bir instrument bo'lib ham xizmat qilmoqda. Buni biz Saudiya Arabistoni, Xitoy va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarda ko'rishimiz mumkin. Diniy islohotlar Ar-Riyodga o'sib borayotgan iqtisodiy va xavfsizlik sohasidagi munosabatlarni mohiyatan yangi bosqichga olib chiqish yo'lida instrument sifatida xizmat qilmoqda. Rossiya va Xitoy Saudiya Arabistonidek davlat tomonidan boshqariluvchi va unga xayrixoh diniy diskursni shakllantirish harakatidadir. Shu sababli mazkur uch davlat o'rtasidagi diniy sohadagi hamkorlik sezilarli darajada o'sdi.

Ar-Riyod Pekinning Uyg'ur musulmonlari bilan bo'lgan munosabatini tanqid qilishdan tiyildi. Rasmiy Moskvaga sodiq bo'lgan Ramzan Qodirov bilan yaqin munosabati Kreml bilan aloqalarni mustahkamlashga yordam berdi. Shu o'rinda 2019-yilda Muhammad bin Salmon Pekinga tashrifi chog'ida Xitoyning o'z milliy manfaatlar doirasida anti-terrorizm va deradikallashtirish choralarini ko'rishga to'laqonli haqli ekanini ta'kidladi. Islom hamkorligi tashkiloti ham Xitoy "Musulmon fuqarolariga g'amxo'rlik qilayotgani uchun" olqishladi.

Umuman olganda, Saudiya Arabistoni vahhobiylilikni qo'llab-quvvatlashdan voz kechish orqali Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarida yangi yutuqlarga erisha boshladi. Buni biz 2023-yil iyul oyida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo va Fors ko'rfazi Arab davlatlari sammiti misolida ham ko'rishimiz mumkin. Mustaqilligining ilk yillarida vahhobiylilik xavfi tufayli aloqalarni cheklagan Markaziy Osiyo davlatlari, endilikda Saudiya qirolligidan diniy ekstremistik guruhlarini qo'llab-quvvatlamaslik sharti bilan asosan energetika sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirishni boshladi.

Umuman olganda, mazkur yangi strategiya o'rta istiqbolda qirollikning tashqi siyosatida ko'p vektorlikni shakllantirishi kutilmoqda. Bu esa Saudiyaning iqtisodiy taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Saudiya Arabistoni diniy siyosatidagi bugungi islohotlar, tendensiya va ulardan ko'zda tutilgan maqsadlar

Saudiya Arabistoni valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon boshchiligidagi mamlakat diniy hayotida inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Qirol Abdulaziz tomonidan boshlangan, ammo Qirol Faysal va Xolid davrida ortga qaytgan vahhobiylarning mamlakatdagi ta'sirini Muhammad bin Salmon susaytirishga harakat qilmoqda.

Hozirgacha konservativ ulamolardan shahzodaga to'g'ridan to'g'ri qarshi chiqqanlari tazyiqqa uchradi, qolganlari esa islohotlarga xayrixoh ekanini bildirdi. Vahhobiylilikni chet elda yoyishga bo'lgan harakatlar ham to'xtatildi. Ommaviy axborot vositalarida mazkur jarayon reformatsiya va o'zligini mustahkamlash tomon tashlangan dadil qadamlar deb baholanmoqda. Diniy politsiyaning vakolati cheklanishi ham ekspertlar tomonidan ijobiy baholanmoqda. Mazkur diniy islohotlar yosh mahalliy aholi tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanmoqda. Ma'lumot uchun, Saudiya Arabistoni aholisining qariyb uchdan ikki qismini 35 yoshdan kichik yoshlar tashkil etadi.

Beyker institutiga ko'ra, Muhammad bin Salmon sulola tomonidan nazorat qilinadigan tuzilmalarni tubdan o'zgartirmasdan, Saudiya Arabistonining xalqaro obro'sini oshirishdan manfaatdor. Ya'ni islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad davlat strukturasi Saudiya hokimiyatini yanada kuchaytirishdir. Ba'zi ekspertlar mazkur munosabatni vahhobiyl islomchilarning chuqur konservativ tabiati bilan bog'liq deb ta'kidlaydi.

"Islohotlar umuman olganda hayratlanarli", deydi siyosatshunos professor Neytan Braun, Karnegi jamg'armasining Yaqin Sharq dasturining katta ilmiy xodimi. Shu bilan birga, "Vahhobiylilik harakat sifatida tugatildi, deb aytishga hali erta. Ammo vahhobiylilik va Saudiya milliy o'ziga xosligida dinning roliga kamroq e'tibor qaratilmoqda", deydi Braun.

Iqtisodiy, sport va ko'ngilochar sohalardagi yangiliklar bilan birga, alohida ahamiyatga ega bo'lgan diniy sohadagi ushbu harakatlar o'rta istiqbolda, Muhammad bin Salmon hokimiyati

konsolidatsiyasini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ehtiyotkorlik bilan yuritilayotgan tashqi siyosat mamlakat ichidagi ultra-konservativ kuchlar va qolaversa, shialarning mamlakat tashqarisidan yordam olishi ehtimolini minimallashtirishga qaratilgan.

Deradikalizatsiyaga qaratilgan “Sakina” dasturi

“Sakina” soʻzi arabcha “tinchlik”, “sokinlik” degan maʼnoga ega boʻlib, ushbu dastur jamiyatda virtual radikallashuvning oldini olishga qaratilgan. Loyiha 11-sentyabr xurujlari va Ar-Riyod teraktlaridan keyin ekstremistik mafkura va zoʻravonlik tarqalishidan xavotirda boʻlgan saudiyalik bir guruh diniy ulamo va faollar tomonidan 2003-yili boshlangan. Quyidagi xususiyatlar mazkur loyihani odatiy targʻibot yoxud repressiv amaliyotlardan ajratib turadi. Jumladan:

- dastur doirasida islom ulamolari faoliyat yuritadi. Ular internetni kuzatadi va radikallashuv belgilari yoki ekstremistik mafkuraga qiziqish bildiruvchi foydalanuvchilar bilan muloqot oʻrnatadi;

- ulamolar diniy argument va dalillardan foydalanib, islomni moʻtadilroq talqin qilishga harakat qiladi;

- Ular foydalanuvchilarga psixologik va ijtimoiy yordam taklif qiladi va agar kerak boʻlsa, ularni boshqa dastur yoki organlarga yuboradi;

Bular onlayn chora-tadbirlar deb ataladi.

Mazkur dastur doirasida onlayn radikallashuv va ekstremizm sabablari, tendensiya va qonuniyatlari boʻyicha tadqiqot va tahlil olib boriladi. Shuningdek, onlayn faoliyat va boshqa tadbirlar samaradorligi nazorat qilinadi va baholanadi. Maxsus xulosalar asosida hisobot va tavsiyalar eʼlon qilinadi. Ushbu chora-tadbirlar tadqiqot va baholash deb ataladi.

Loyiha doirasida din olimlari, oʻqituvchilar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, xavfsizlik xodimlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari kabi turli manfaatdor tomonlar uchun seminar, konferensiya va treninglar tashkil qilinadi. Loyiha onlayn radikallashuv va ekstremizmning oldini olish, unga qarshi kurash boʻyicha ogohlikni oshirish, shuningdek, zarur koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Bundan tashqari, loyiha boshqa mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan ham hamkorlik qiladi. Ushbu chora-tadbirlar salohiyatni oshirish va tarmoq yaratish deb ataladi.

2008-yili “Sakina” Saudiya Arabistoni islom ishlari vazirligi tomonidan rasman tan olingan va qoʻllab-quvvatlangan mustaqil, nodavlat tashkilotga aylandi. Oʻsha yili axborot xavfsizligi toʻgʻrisidagi yangi qonun qabul qilindi. Unda ekstremistik yoki radikal materiallarni internetda tarqatishda ishtirok etgan har bir kishi uchun qattiq jazo belgilandi.

2011-yilda esa “Sakina” dasturi maktab, masjid va qamoqxonalarga tashrif buyurish kabi offlayn tadbirlarni oʻz ichiga olgan holda oʻz faoliyatini kengaytirdi. Shuningdek, koʻngillilar va olimlarni radikal oqimlarga qarshi kurashishga jalb etish, shuningdek, mutaassiblikka moyil shaxslarga psixologik va ijtimoiy yordam berish uchun seminar, trening va konferensiyalar tashkil etildi.

2014-yilda “Sakina” ilohiyot, fiqh, tarix va axloq kabi islom bilan bogʻliq turli mavzular boʻyicha maʼlumot va manbalar taqdim etuvchi veb-sayt ishlab chiqdi. Veb-saytda zoʻravonlikdan voz kechgan va tinch-totuv yashashni qoʻllab-quvvatlagan sobiq ekstremistlarning guvohliklari mavjud. Veb-saytning asosiy eʼtibori kengroq auditoriyani qamrab olishga, konstruktiv muloqot va munozaralar uchun platforma taklif qilishga qaratilgan.

Shuningdek, loyiha bilan sobiq ekstremistik eʼtiqodidan voz kechgan koʻngillilar ham ishlaydi. Bu shaxslarning aksariyati ekstremistlar emas, balki islomda nimalar joiz ekanini haqida savollari bor va ularga soha mutaxassislardan javob olishni istagan odamlar edi.

Tarmoqda dastlabki muloqot oʻrnatilgandan soʻng “Sakina” xodimi odatda ularga shaxsiy chat xonasiga koʻchib oʻtishni taklif qiladi. Ushbu onlayn suhbatlar ham real vaqtda, ham postlar shaklida boʻlib oʻtadi. Ikkinchi holatda, odatda suhbatdosh savol beradi, keyin esa “Sakina” xodimi javob beradi. Ushbu suhbatlar bir necha soat davom etishi mumkin. Ammo baʼzi foydalanuvchilar ushbu xizmatga bir necha oy davomida davomli murojaat qiladi.

Muloqot stenogrammasi keyin boshqalar oʻqishi uchun internetga joylashtiriladi. Bu dasturning qamrov imkoniyatini oshiradi.

Natijalar. Radikallashuv va siyosiy zoʻravonlikni oʻrganish boʻyicha xalqaro markaz hisobotiga koʻra, “Sakina” loyihasi ekstremistik qarash yoki shunga oʻxshash gʻoyalarga hamfikrligini bildirgan shaxslar bilan 3000 dan ortiq onlayn muloqot oʻtkazgan va ulardan 1500 nafarini terrorchilar safiga qoʻshilishdan qaytargan.

Dastur amalga tatbiq etilganidan koʻp oʻtmay umidli natijalar bera boshladi. Saudiya rasmiylari muvaffaqiyat darajasi 80 dan 90 foizgacha boʻlganini daʼvo qilmoqda. Bundan tashqari, 2007-yil noyabr oyida shahzoda Muhammad bin Naif atigi 35 ta takroriy jinoyat sodir etish holatlari qayd etilganini taʼkidladi. Bu ikki foizdan kam koʻrsatkichga teng. Shuni taʼkidlab oʻtish kerakki, yot gʻoyalar taʼsiriga tushib qolgan fuqarolar fikrini oʻzgartirish va takroriy jinoyat sodir etishining oldini olish murakkab vazifa ekanini hisobga olinsa, yuqoridagi natija dastur muvaffaqiyatidan darak beradi.

Virtual suhbat xonalaridagi sessiyalar odamlarni oʻz eʼtiqodi haqida munozaralarga jalb qilish orqali yolgʻonlarni koʻrsatish va internet foydalanuvchilarga islom haqidagi “notoʻgʻri” tushunchalardan voz kechishga yordam beradi.

Saudiya Arabistoni diniy siyosatidagi yangi tendensiyalarga siyosiy elita va xalqning munosabati

Saudiya Arabistonidagi diniy islohotning boshlanish nuqtasi 1744-yilga borib taqaladi. Aynan shu yili vahhobiylar saudlar mafkurasiga aylandi. Unga koʻra, saud qirollari siyosatini, diniy rahnamolar jamiyatni boshqarishga kelishib oldi. Bu Saudiya Arabistoni ichidagina saqlanib kelayotgan edi. Lekin 1979-yilda Eronning islom eksporti natijasida Kaʼba atrofida boʻlib oʻtgan shia va sunniylar oʻrtasidagi yirik toʻqnashuv Saudiya hukumatini oʻzgarishiga sabab boʻldi. Bunda ulamolarga yanada koʻproq imkoniyat berildi. Xususan, ularning fatvolari saudiyaliklar kundalik hayoti va oʻquv darsliklarigacha kirib bordi, vahhobiylar hududdan tashqariga eksport qilina boshladi.

2015-yildan keyin Salmon ibn Abdulaziz taxtga kelgach, defakto hukmdorga aylangan Muhammad bin Salmon neft qaramligidan qutulib, koʻp tarmoqli iqtisodiyotga oʻtish choralarni boshladi. Bunda u barcha maqsadlarini “Vision-2030” ga qaratdi. Koʻp tarmoqli boʻlish uchun hududga inson kapitali kelishi lozim. Buning uchun esa Saudiya jozibador boʻlishi kerak. Lekin 1989-yildan keyingi ulamolarga berilgan erkinlik natijasida qabul qilingan fatvolar jamiyatni har qanday yangilikdan chekladi. Bu qoidalar shariat politsiyasi tomonidan nazoratga olindi. Muhammad bin Salmon dunyo aholisini jalb qilish va oʻz xalqiga boʻlayotgan diniy oʻzgarishlarni tushuntirish uchun vahhobiylar natijasida oʻzgargan islomni asl holiga qaytaramiz deb qilayotgan ishlarni oqlamoqda.

Dastlabki ish ayollardan boshlandi. Bunda ayollarga 2017-yildan avtomobil haydashga ruxsat etildi, 2018-yildan esa hijob kiyish majburiyligi qonundan olib tashlandi. Shu tufayli hozirda ayollarning ishlaydigan qatlam ichidagi koʻrsatkichi 36 foizga chiqdi. Soʻrovnoma natijalariga koʻra, 60 foiz aholisini 30 yoshdan kichiklar tashkil etadigan Saudiyadagi bu islohotlardan aholining 64 foizi mamnun.

Siyosiy elita deganda Saudiyada faqatgina Muhammad bin Salmonning yakka oʻzi koʻz oldimizga keladi. U bergan intervyulardan birida: “Biz vahhobiylar bilan 30 yillab kurashmaymiz, uni bugunoq yoʻq qilamiz”, degan edi. Shunga koʻra, saudiyalik ulamolarga uch yoʻl qoldirildi. Birinchisi, diniy islohotlarda davlat pozitsiyasini yoqlab fatvolarini oʻzgartirish. Ikkinchisi, sukut saqlab, daʼvatdan voz kechish. Uchinchi yoʻl – oʻlim.

Vahhobiylarda siyosiy rahbarga fitna koʻpayib ketib, qatl koʻpaymasligi uchun rahbarga boʻysunish talab qilinadi. Shunga koʻra, diniy rahnamolarning maʼlum bir qismi 10 yil oldingi “Ayollarga avtomobil boshqarish mumkin emas” va shu kabi fatvolarini hozirda oʻzgartirib fatvo berdi. Lekin baʼzi ulamolar bunga rozi boʻlmadi va oʻrtacha har yili 140 ta oʻlimga hukm qilinganlar safiga tushdi. Ular ichida twitterda katta auditoriyasi boʻlgan Salmon al-Odah, Avad al-Qorni va Ali al-Umariylar bor. Bu bilan ultra-konservativ kuchlar yoʻq qilinib, barcha katta

auditoriyaga ega ta'sir qiluvchilar yo'q qilinmoqda.

Ushbu o'zgarishlar tufayli aholi keskin guruhlariga bo'linib ketdi. Dindor qatlamning 60 foizga yaqini bu o'zgarishlarni salbiy baholamoqda. Yoshlar esa jamiyat o'rnatgan qoidalariga qaramasdan erkinlik istab, ijtimoiy tarmoqlarda o'zini namoyish qilishga intiladi. Lekin ko'proq bu o'zgarishlar faqatgina shahar aholisi o'rtasidagina kechmoqda. Markaziy shaharlardan tashqarida yashayotgan aholi o'zining badaviy – sahroyi hayotida qolib, bo'layotgan o'zgarishlardan norozidir. Shu sababli Muhammad bin Salmonning "Vision-2030" rejasida bo'yicha aholini uy bilan ta'minlash jadal sur'atlar bilan olib borilib, 2020-yilda 62 foizga yetkazildi. Solishtirish uchun 2016-yilda 49 foiz edi.

Umumiy hisobda 2019-yilda diniy o'zgarishlardan 77 foiz saudiyalik norozi ekanini bildirgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 55 foizgacha tushdi.

Saudiya Arabistonidagi diniy siyosatga xalqaro va xorijiy ekspertlar hamda tahlilchilar munosabati

AQSHdagi 2001-yil 11-sentyabr hodisasini amalga oshirgan 19 terrorchining 15 nafari saudiyalik bo'lgani va Saudiyaning uzoq yillik vahhobiyligni eksport qilganidan keyin, 2017-yil boshlangan islohotlari davlatda katta o'zgarishlar boshlanganidan darak berdi. Saudiya Arabistoni vahhobiyligi ta'sirini cheklagan holda, dindor o'z siyosati va jamiyatidagi o'rni tizimli ravishda qayta qurish uchun foydalanmoqda. Saudiya davlati ichida hokimiyatni markazlashtirish uchun birgalikda harakat qilinmoqda. Xususan, valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon eski tuzilmalarni jilovlab, to'g'ridan-to'g'ri markaz tomonidan boshqariladigan yangilarini yaratmoqda. Dinga aloqadorlikdan holi milliy Saudiya identikligini targ'ib qilish uchun harakat qilinmoqda. Bunga shahzoda Xolid bin Salmon raislik qiladigan Saudiyaning xarakterlarni boyitish da'sturi kabi tashabbuslar kiradi. Dinni inkor qilmasa-da, Saudiya identikligini targ'ib qilishda, ayniqsa, madaniyat vazirligi kabi muassasalarda ochiq diniy mavzu va lug'atlardan chekinish bor.

Sahvo harakati va shia musulmonlari kabi muxolif guruhlar ta'qibga duch kelmoqda. Bu muxoliflar uchun diniy va siyosiy maydonning cheklanganidan dalolat beradi. Shia musulmonlari davlat organlaridan uzoqlashtirilmoqda va ularga xavfsizlikka tahdid soluvchi sifatida qaralmoqda. Bu o'zgarishlarning bevosita ta'siri Saudiya jamiyatini qayta shakllantirishda ta'sirli bo'lsa-da, uzoq muddatli oqibatlarini aniq emas. Bunga sabab hukumat keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bilan bir qatorda mavjud tuzilmalarni saqlab qolishda davom etmoqda.

O'zgarishlarning to'liq yakuniga yetishini va uning jamiyatga qanday ta'sir qilishini kutish kerak. Bu islohotlarning muvaffaqiyati uzoq vaqtga cho'zilishi hali aniq emas.

Saudiya Arabistonidagi diniy siyosatning istiqbolari

Saudiya Arabistonidagi diniy yetakchilar qirolning mamlakat rahbari sifatidagi hokimiyatini tan olganidan keyin unga qarshi chiqish, e'tiqodi tufayli muxolif harakatlarga rahbarlik qilishdan chetlanadi. Ular muxolifatga maslahat berishi mumkin bo'lsa-da, siyosatni to'g'ridan-to'g'ri rad etish radikal xususiyat kasb etishi va xavfli ekanini biladi. Shu sababli ulardan katta xavf kutilmaydi.

Diniy muassasa, ayollarga avtomobil haydashga ruxsat berish kabi qarorlarni ma'qullashidan xulosa qilish mumkinki, ular davlat siyosatiga moslashmoqda. Davlat maqsadlari uchungina faoliyat yuritadigan din vakillari o'z martabasida ko'tarilmoqda. Davlat tuzilmalarida mana shunday diniy yetakchilar ko'paygani buning dalilidir. Ko'pgina islohotlar uzoq strategiyaning bir bo'lagi bo'lmay, balki ish jarayonida qabul qilinayotgani sababli, ular katta ehtimol bilan bekor qilinishi mumkin. Ezgulikni targ'ib qilish hamda illatlarning oldini olish qo'mitasi kabi institutlar yana obro' qozonishi va vahhobiyligining turli unsurlari tiklanishi mumkin. Ochiq qarama-qarshilikning yo'qligi markazlashuvning kuchayishi tufayli elita xohishiga ko'ra islohotlar yana eski holatiga qaytishi mumkin.

Barqaror islohotlar mamlakat ichida va xalqaro miqyosda kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xalqaro miqyosda qirollik diniy faoliyati ortidagi siyosiy motivlar tufayli islom olamida yumshoq kuchini yo'qotishi mumkin. Mamlakatda turli guruhlar, jumladan, san'atkor va diniy arboblardan o'rtasida keskin

bo'linish, ya'ni jamiyatdan ajralib qolish kuzatilishi mumkin. Bu esa kam bo'lsa-da, hukumatdan norozilikka yoki rasmiy diniy ta'limotdan uzoqlashishga olib keladi.

Siyosiy islohotlarsiz liberallashtirish keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki ba'zi guruhlar o'zini chetlashtirilgandek his qilishi va davlat manfaatlaridan ko'ra, g'arb manfaatlarini ustuvor bilishi mumkin. Ushbu qarama-qarshi maqsaddagi toifalarni boshqarish hozirda rahbariyatdan ko'proq nozik siyosiy boshqaruvni talab qiladi.

Saudiya Arabistonining mafkuraviy siyosatini ishlab chiquvchi institutlari va uni amalga oshirish texnologiyalari

1992-yilda qabul qilingan Bosh qonunda shariat qirollikning asosi ekanini belgilab qo'yilgan. Mamlakat ichki va tashqi siyosatida, shuningdek, rasmiy mafkurasi shakllanishida uzoq yillar diniy ulamolar roli va ta'siri yuqori bo'lib kelgan. Diniy ulamolar roli 1979-yil Masjidul Haramda yuz bergan terakt va Erondagi islomiy inqilobdan so'ng ayniqsa kuchaygan. So'nggi yillarda Saudiya Arabistonining mafkuraviy siyosatida transformatsiya kuzatilmoqda. Bu, birinchi navbatda, valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon boshlagan islohotlar bilan bog'liq. Mamlakatda asosiy mafkura sifatida saudiy o'zligini ilgari surish, tashqi siyosatda "Saudiya birinchi" tamoyili va milliyatchilik g'oyasi ustuvorligi kuchayganiga guvoh bo'lish mumkin.

Saudiya ulamolar kengashi mamlakatning eng obro'li diniy yetakchilaridan iborat bo'lib, u mamlakatning nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy hayotida ham muhim rol o'ynab kelgan. Ulamolar kengashining asosini Hanbaliy mazhabi va vahhobiyligi oqimi vakillari tashkil qilgan. 2005-yilda Qirol Abdulloh bin Abdulaziz boshlagan o'zgarishlar orqali ulamolar roli kamaytirib borildi. Ulamolar kengashi qirollikning rasmiy mafkurasi shakllanishida ham muhim o'rin tutgan. Kengash a'zolari va Saudiya bosh muftiysi asosan qirol oilasidan keyingi eng nufuzli oila – Oli Shayxga mansub shaxslardan tayinlangan. Bu oila Muhammad ibn Abdulvahhobning avlodlari bo'lib, mamlakatning nafaqat diniy, balki siyosiy hayotida ham muhim lavozimlarni egallab kelgan.

2015-yildan mamlakatda olib borilgan islohotlar natijasida siyosiy institutlar, boshqaruvdagi kadrlar va sud tizimi ham evrilishga yuz tutgan. Muhammad bin Salmon davrida konservativ qarashdagi bir qancha amaldor va ulamolar lavozimidan chetlashtirildi. Bugungi kunda boshqa institutlar qatori ulamolar kengashi vakolatlari va ta'siri kamaytirildi. 2021-yilda valiahd shahzoda mamlakatning diniy doktrinasiga ko'ra davlat vahhobiyligi talqinidagi islom ta'limotiga ko'r-kona ergashmasligini ta'kidladi.

Mamlakat mafkuraviy siyosatini shakllantirishda bir qator siyosiy institut va diniy tuzilmalar rol o'ynaydi. Bular jumlasiga Ulamolar kengashi, Islom ishlari vazirligi, Adliya vazirligi, Amru ma'ruf va nahy munkar qo'mitasi (diniy politsiya), Ta'lim vazirligi va Jahon musulmonlar ligasini kiritish mumkin. Jahon musulmonlar ligasi qirollik xonadoni bilan yaqin aloqasi tufayli qarorlarga ta'sir darajasi kuchlidir.

Hukumat boshlagan liberallashtirish siyosatiga diniy ulamolar qarshiligining oldini olish va ekstremizmga qarshi kurashish maqsadida Muhammad bin Salmon davrida bir qator yangiliklar amalga oshirildi. Islom ishlari vazirligi juma mav'izalari, ulamolar ma'ruzalari va darslari, rasmiy va norasmiy ta'lim muassasalaridagi diniy darslar, nodavlat diniy va xayriya tashkilotlari faoliyati, diniy kitoblar va Qur'oni karim nashrlarini nazoratga oldi.

Islom shariatiga asoslangan mafkuraning amal qilishida Saudiya sud tizimining ham roli yuqori darajada. So'nggi yillarda sud tizimi ham transformatsiyaga uchradi. Garchi hukmlarni asoslashda shariat asosiy manba hisoblansa-da, islohot sud tizimini ham chetlab o'tmaganini ko'rish mumkin. Diniy politsiya ham transformatsiyaga uchradi. Eng muhim tartibot organlaridan hisoblangan tuzilmaning ta'siri sezilarli darajada pasaydi.

Ta'lim vazirligi mamlakatning mafkuraviy siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Maktab darsliklari qayta yozilib, mazmuni mafkuraviy evrilishga uchradi. Unda mamlakatning tashkil topishida vahhobiyligining roli kamaytirib ko'rsatildi. Maktab o'quvchilariga milliy mafkurani yetkazishda

musulmon o'zligidan ko'ra, milliylikka, saudiylik o'zligiga urg'u berilmoqda. Saudiya jamiyatida musulmon birodarlar g'oyasi ta'sirini kamaytirish uchun ta'lim muassasalarida islom birodarligi g'oyasiga asoslangan kitoblar taqiblandi, maslak tarafdorlari bo'lgan o'qituvchilar ishdan chetlatildi. Diniy universitetlar rahbarligiga diniy ulamo bo'lmagan shaxslar tayinlana boshlandi.

Saudiya Arabistoni mafkuraviy siyosatining O'zbekistonga ta'siri va istiqbollari: tarix, diniy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy, ma'rifiy va texnologik omillar

Saudiya Arabistoni islom olami markazi sifatida musulmon dunyosida o'z ta'siriga ega. Mamlakat uzoq yillar teokratik boshqaruvda bo'lgani va ulamolar yuqori ta'sirga ega bo'lganidan dunyo musulmonlarida ideal davlat o'laroq havas uyg'otib

kelgan. Qolaversa, Saudiya hukumati vahhobiylarni davlatning bosh mafkurasiga aylantirib, uni yoyishda bevosita va bilvosita homiylik qilgan. Bu vahhobiylar g'oyalarining O'zbekiston hududida ham tarqalishi va bir qator muammolarning kelib chiqishiga olib kelgan.

So'nggi yillarda Saudiya davlat mafkurasida yuz berayotgan transformatsiyaning O'zbekistonga ta'sirini ijobiy deysish mumkin. Saudiyada vahhobiylarni yoyishdan voz kechib, mo'tadil islom haqida oliy darajalarda bayonot berila boshlangani, siyosiy qarorlar qabul qilishda ulamolar roli kamaytirilgani, diniy ta'lim va ma'ruzalar ustidan nazorat o'rnatilishi, milliy mafkura sifatida saudiylik o'zligiga alohida urg'u berilishi mamlakatda sekulyarizmga moyillik kuchayib borayotganidan darak beradi.

JAMIYATNING MA'NAVIY YANGILANISHIDA AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK UYG'UNLIGI

SHAXNOZA KIMSANBAYEVA
Perfect University dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda diniy meros va qadriyatlarini qayta tiklash, an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash, ulardan jamiyatni ma'naviy yangilash jarayonida foydalanish, dinning mamlakatimiz ma'naviy hayotidagi o'rni masalalari tahlil etilgan. **Tayanch so'zlar:** diniy meros, vijdon erkinligi, milliy o'zlik, hadis, an'anaviylik, zamonaviylik, ma'naviy yangilanish.

Annotation: The article analyses the issues of revival of religious heritage and values in Uzbekistan in the years of independence, ensuring harmony between traditionalism and modernity, their use in the process of spiritual renewal of society, the place of religion in the spiritual life of our country. **Keywords:** religious heritage, freedom of conscience, national identity, hadith, traditionalism, modernity, spiritual renewal, Islam.

Аннотация: В данной статье проанализированы вопросы возрождения религиозного наследия и ценностей в Узбекистане в годы независимости, обеспечения гармонии традиционализма и современности, использования их в процессе духовного обновления общества, места религии в духовной жизни нашей страны. **Ключевые слова:** религиозное наследие, свобода совести, национальная идентичность, хадисы, традиционализм, современность, духовное обновление.

Jamiyat ma'naviy hayoti murakkab, rang-barang omillar ta'sirida shakllanadi va bu jarayon uzluksiz rivojlanib boradi. Taraqqiyotning dinamik xususiyati aslida ma'naviy hayotning o'zgarish va yangilanishlari ta'sirida aks etadi. Shuning uchun jamiyat ma'naviy hayoti, undagi o'zgarish va yangilanishlarni ma'lum me'yor, o'lchov va ko'rsatgichlarga solish har doim muayyan qiyinchilik tug'dirgan. Ayniqsa, diniy merosning jamiyat ma'naviy hayotiga ta'siri va undagi o'zgarishlarni aniqlash oson bo'lmagan. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonida diniy meros hamda milliy o'zlikni anglashda an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligini e'tiborga olish muhim ahamiyatga egadir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda dunyoviy davlat tamoyiliga amal qilish boshlandi. Dunyoviy davlatda dinga va diniy merosga munosabat ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Jumladan, bunda quyidagilar e'tiborga olinadi: 1) Dinning davlatdan ajratilishi uning faoliyat sohalarini cheklanishini bildirmaydi; 2) Dunyoviy davlat dindorlarning huquq va manfaatlarini, erkinligi, ishonch va e'tiqodiga xalal bermaydi; 3) O'zbekiston Respublikasi dunyoviy davlat bo'lib, hech qaysi dinga majburlanmaydi; 4) Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan va qonun oldida teng hisoblanadi [6:492]. Bunday qoida din va diniy merosga nisbatan yangicha yondashuv sifatida an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlashga sharoit yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi" [4:8] – deb belgilab qo'yilgan.

Mustaqillik diniy meros va qadriyatlarini qayta tiklash, an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash, ulardan jamiyatni ma'naviy yangilash jarayonlarida foydalanish imkonini

berdi. Ayniqsa, islomiy meros va qadriyatlardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Islomiy merosni anglash va qayta tiklashda Imom Buxoriyning "Sahihul Buxoriy", Imom Termiziyning "Sahihul Termiziy", "Shamoili Muhammadiya", Abu Lays Samarqandiyning "Bo'stonul orifin", Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma", Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining "Bahouddin Balogardan", Abu Homid G'azzoliyning "Qalblar kashfiyoti", "Tafakkur", "Kimyoi saodat", Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Burhoniddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar", Muhammad ibn Abubakrning "Hadisi Ufuriy", Sayfur Zafar Navbahoriyning "Durrul majolis", Muhammad Zakariyoning "Fazoilul a'mol", Xo'janazar Huyaydning "Rohati dil", Kaykovusning "Qobusnoma", Fariddin Attorning "Ilohiynoma", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Xoja Samandar Termiziyning "Dasturul muluk", Roziiddin ibn Faruddinning "Nasiyhat" kabi asarlarining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, mustaqillik yillarida ulug' ajdodlarimiz haqida chop etilgan Najmiddin Komilovning "Kubro", Hamidxon Islomiyning "Ipor hid ila tug'ilgan orif", Sadriddin Salim Buxoriyning "Tabarruk ziyoratgohlar", Botir Valixo'jayevning "Xoja Ahror tarixi", Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Islom tarixi", Ubaydulla Uvatovning "Buyuk yurt allomalari" kabi asarlari diniy meros va qadriyatlar asosida milliy o'zligimizni anglashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo'lida birlashishga da'vat etadigan g'oyalar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab diniy meros va milliy o'zlikni anglashda an'anaviy negizni zamon bilan bog'lagan holda yangilashga katta e'tibor berildi. Ajdodlarimiz diniy merosi